



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3897
2026 - yil 13 - Iyul

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI,

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGINING QARORI

**“Yangi O‘zbekiston” universitetida davlat oliy ta‘lim tashkilotlari
rektori (direktori) lavozimiga nomzodlarni tayyorlash bo‘yicha
“Rektorlar maktabi” dasturi doirasida o‘qishga qabul qilish
tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 16-apreldagi 177-son “Yangi O‘zbekiston” universitetida “Rektorlar maktabi” dasturini yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [qaroriga](#) muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi qaror qiladi:

1. “Yangi O‘zbekiston” universitetida davlat oliy ta‘lim tashkilotlari rektori (direktori) lavozimiga nomzodlarni tayyorlash bo‘yicha “Rektorlar maktabi” dasturi doirasida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta‘lim sifatini ta‘minlash milliy agentligi bilan kelishilgan.

3. Mazkur qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Vazir
03-Iyul 2026-yil
43-q/q son



SHARIPOV KONGRATBAY
AVEZIMBETOVICH

Vazir
24-Iyun 2026-yil
39-mh son



KARIMOVA E'ZOZXON
GAPIRJONOVNA

Kelishildi:

Direktor
03-Iyul 2026-yil



YULDASHEV BAXTIYOR
GAYRADJONOVICH

Direktor v.b.
19-Iyun 2026-yil



XUSAINOV ULUG'BEK
SHUXRATJONOVICH

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligining 2026-yil 3-iyuldagi 43-q/q-son hamda Maktabgacha va
maktab ta'limi vazirligining 2026-yil 24-iyundagi 39-mh-son
qaroriga
ILOVA

**“Yangi O‘zbekiston” universitetida davlat oliy ta’lim tashkilotlari
rektori (direktori) lavozimiga nomzodlarni tayyorlash
bo‘yicha “Rektorlar maktabi” dasturi doirasida o‘qishga qabul
qilish tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM**

Mazkur Nizom “Yangi O‘zbekiston” universitetida (bundan buyon matnda Universitet deb yuritiladi) davlat oliy ta’lim tashkilotlari rektori (direktori) lavozimiga nomzodlarni tayyorlash bo‘yicha “Rektorlar maktabi” dasturi (bundan buyon matnda Dastur deb yuritiladi) doirasida o‘qishga qabul qilish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizomda quyidagi tushunchalar qo‘llaniladi:

nomzodlar – Dastur doirasida o‘qishga kirish istagini bildirgan shaxslar;

Texnik guruh – har yili Universitet rektori buyrug‘i bilan tashkil etiladigan nomzodlarning hujjatlarini qabul qiladigan va ularni o‘rganadigan hamda nomzodlarga maslahat beradigan guruh;

Qabul komissiyasi – har yili Universitet rektorining buyrug‘i bilan tashkil etiladigan nomzodlarning test sinovlarini, psixologik o‘rganishlarini hamda suhbatdan o‘tkazish jarayonlarini muvofiqlashtiruvchi kollegial organ.

2. Dastur doirasida 30 yoshga to‘lgan, kamida magistr akademik darajasiga va oliy ta’lim sohasida kamida 5 yillik ish tajribasiga ega bo‘lgan, shu jumladan, 2 yil rahbarlik lavozimlarida ishlagan nomzodlar ochiq tanlov asosida o‘qishga [qabul qilinadi](#).

3. Dastur doirasida o‘qishga qabul qilishda nomzodlarning oliy ta’lim sohasida, shu jumladan oliy ta’lim tashkilotlari, davlat organlari va tashkilotlarida oliy ta’lim sohasiga oid vazifalarni amalga oshirish bilan bog‘liq rahbarlik lavozimlaridagi ish tajribasi inobatga olinadi.

Bunda rektor, prorektor, direktor, direktor o‘rinbosari, filial direktori, filial direktori o‘rinbosari, dekan, dekan o‘rinbosari, fakultet boshlig‘i, fakultet boshlig‘i o‘rinbosari, kafedra mudiri, boshqarma boshlig‘i, boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari, bo‘lim boshlig‘i, markaz rahbari, sho‘ba mudiri hamda lavozim vazifalari va boshqaruv funksiyalari mazmuniga ko‘ra boshqa rahbarlik vazifalari yuklatilgan lavozimlar rahbarlik lavozimlari sifatida e‘tirof etiladi.

4. Nomzodlarni Dastur doirasida o‘qishga qabul qilish quyidagi bosqichlardan iborat ochiq tanlov asosida bepul amalga oshiriladi:

birinchi bosqich – nomzodlarning arizalarini qabul qilish va ularni o‘rganish;

ikkinchi bosqich – nomzodlarni test sinovlaridan o‘tkazish;

uchinchi bosqich – nomzodlarni psixologik o‘rganish;

to‘rtinchi bosqich – nomzodlar bilan suhbat o‘tkazish.

5. Dastur doirasida o‘qishga qabul bir yilda kamida ikki marotaba o‘tkaziladi. Yillik qabul kvotasi 80 nafarni tashkil etadi. Bunda qabul davrlari kesimida kvotani taqsimlash Qabul komissiyasi tomonidan belgilanadi.

6. Nomzodlar test sinovlari, psixologik o‘rganish va suhbatdan o‘tish natijalari bo‘yicha to‘plangan umumiy ballariga ko‘ra mazkur Nizomning 6-bobiga muvofiq Dastur doirasida o‘qishga qabul qilinadi.

..

2-bob. Nomzodlarning arizalarini qabul qilish va ularni o‘rganish

..

7. Dastur doirasida o‘qishga kirish uchun nomzodlarning arizalarini topshirish muddati Qabul komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Texnik guruh tomonidan ochiq tanlov haqidagi e‘lonlar nomzodlarning arizalarini topshirish muddati boshlanishidan kamida ikki hafta oldin ommaviy axborot vositalari (televideniye, bosma va internet nashrlari) hamda Universitetning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

8. Ochiq tanlov haqidagi e‘lonlarda quyidagi ma‘lumotlar ko‘rsatiladi:

1) arizalarni qabul qilish muddati va tartibi;

2) nomzodlarga qo‘yiladigan talablar;

3) Dastur doirasida o‘qishga qabul qilish kvotasining soni;

4) Universitetning aloqa telefon nomerlari va elektron pochta manzillari.

9. Nomzodlar Qabul komissiyasi tomonidan belgilangan muddatlarda bevosita Universitetning elektron platformasidan (bundan buyon matnda elektron

platforma deb yuritiladi) ro'yxatdan o'tgan holda shaxsiy kabinetlari orqali ariza bilan murojaat qiladilar.

Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

ma'lumotnoma-obyektivka;

ingliz tilini bilish sertifikatini (agar mavjud bo'lsa).

Taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlarning haqqoniyligiga nomzodlar mas'ul hisoblanadi.

10. Nomzodlar tomonidan taqdim etilgan arizalar va ularga ilova qilingan hujjatlar Texnik guruh tomonidan ular taqdim etilgan kundan boshlab 3 ish kuni ichida o'rganib chiqiladi.

Bunda nomzodlarning arizalariga ilova qilingan hujjatlardagi ma'lumotlarning haqiqiyliги Texnik guruh tomonidan mavjud imkoniyatlar va vakolatli davlat organlariga so'rovlar yuborish orqali tekshirilishi mumkin.

11. Nomzodlarning arizalari va unga ilova qilingan hujjatlar Texnik guruh tomonidan o'rganib chiqilganidan so'ng, uning natijasiga ko'ra 1 ish kuni ichida nomzodlarga arizalari qabul qilinganligi yoki qabul qilish rad etilganligi yoxud arizalar va ularga ilova qilingan hujjatlardagi kamchiliklarni bartaraf etish haqida ularning elektron platformasidagi shaxsiy kabinetlariga xabarnoma yuboriladi.

12. Nomzodlarning arizalari qabul qilinganligi to'g'risidagi xabarnomada test sinovlarining sanalari, joylari va nomzodlarning shaxsiy ma'lumotlari aks ettiriladi.

Ushbu xabarnomadan (elektron yoki bosma shaklda) nomzodlar test sinovlariga shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarining (fuqarolik pasporti, identifikatsiyalovchi ID-karta, fuqaroning xorijga chiqish biometrik pasporti yoki haydovchilik guvohnomasi) asl nusxasi yoki uning O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va (yoki) "Ijtimoiy karta" mobil ilovasi orqali beriladigan elektron shakli bilan birga kirish uchun ruxsatnoma sifatida foydalanadi.

13. Nomzodlarning arizalari va ularga ilova qilingan hujjatlarda kamchiliklar aniqlangan taqdirda, ushbu kamchiliklar ko'rsatilgan xabarnoma yuborilgan kundan boshlab nomzodlar tomonidan 2 ish kuni ichida bartaraf etilishi lozim.

Kamchiliklar bartaraf etilgandan so'ng, arizalar va unga ilova qilingan hujjatlar Texnik guruh tomonidan takroran 3 ish kuni ichida o'rganib chiqiladi.

Agar Texnik guruh tomonidan takroran nomzodlarning arizalari va unga ilova qilingan hujjatlari o'rganilishi natijasida ulardagi kamchiliklar bartaraf etilmaganligi aniqlansa, ushbu Nizomning 14-bandiga muvofiq nomzodlarning arizalarini qabul qilish rad etiladi.

14. Nomzodlarning arizalarini qabul qilish quyidagi hollarda rad etiladi:

nomzodlar mazkur Nizomning 2 va 3-bandlarida nazarda tutilgan talablarga javob bermagan taqdirda;

nomzodlar tomonidan ariza va unga ilova qilingan hujjatlardagi kamchiliklar ushbu Nizomning 13-bandida keltirilgan muddatlarda to'liq bartaraf etilmagan taqdirda;

nomzodlarning arizalariga ilova qilingan hujjatlarda noto'g'ri yoki yolg'on ma'lumotlar aniqlangan taqdirda;

nomzodlar o'z arizalarini qaytarib olish to'g'risida murojaat etgan taqdirda.

..

3-bob. Nomzodlarni test sinovlaridan o'tkazish

..

15. Nomzodlarni Dastur doirasida o'qishga qabul qilish o'quv-akademik boshqaruv, moliya-iqtisodiyot, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar, ma'naviyat va ma'rifat hamda sun'iy intellekt va axborot texnologiyalari yo'nalishlaridan, shuningdek ingliz tilini bilish darajasini belgilovchi kamida B2 va unga tenglashtirilgan darajadagi milliy yoki xalqaro sertifikat bo'lmagan taqdirda yoki ushbu sertifikat mavjud bo'lib, uning amal qilish muddati o'tgan taqdirda, ingliz tilidan test shaklida amalga oshiriladi.

Bunda baholash mezonlari quyidagicha belgilanadi:

yo'nalishlar bo'yicha 40 ta test uchun – 80 ball (har bir to'g'ri javob uchun 2 ball);

ingliz tili bo'yicha 20 ta test uchun – 20 ball (har bir to'g'ri javob uchun 1 ball).

Ingliz tilini bilish darajasini belgilovchi kamida B2 va unga tenglashtirilgan darajadagi milliy yoki xalqaro sertifikati mavjud bo'lgan nomzodlarga ingliz tili bo'yicha eng ko'p (maksimal) 20 ball beriladi.

Test sinovlarida eng ko'p (maksimal) to'planishi mumkin bo'lgan ball 100 ballni tashkil etadi. Test sinovlarida 55 va undan past ballni to'plagan nomzodlar keyingi bosqichga (psixologik o'rganishga) o'tkazilmaydi va testdan o'tmagan hamda Dastur doirasida o'qishga qabul qilinmagan hisoblanadi.

16. Test sinovlarini tashkil etish va o'tkazish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

test topshiriqlari Universitet binosida maxfiylik ta'minlangan holda Qabul komissiyasi tomonidan tegishli soha mutaxassislari ishtirokida shakllantiriladi. Bunda test topshiriqlarida har bir savol uchun to'rtta javob varianti keltirilib, ulardan faqat bittasi to'g'ri bo'ladi;

test sinovlarining topshiriqlari shakllantiriladigan mavzular ro'yxati test sinovlari o'tkazilishidan kamida 5 ish kuni oldin elektron platformada e'lon qilinadi;

test sinovlaridagi topshiriqlarni bajarish uchun nomzodlarga 120 daqiqa vaqt beriladi;

nomzodlar test sinovlariga shaxsini tasdiqlovchi hujjatning (fuqarolik pasporti, identifikatsiyalovchi ID-karta, fuqaroning xorijga chiqish biometrik pasporti yoki haydovchilik guvohnomasi) asl nusxasi yoki uning O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va (yoki) "Ijtimoiy karta" mobil ilovasi orqali beriladigan elektron shakli va ularning arizalari qabul qilinganligi to'g'risidagi xabarnoma asosida kiritiladi;

test sinovlari o'tkaziladigan binoga nomzodlar maxsus tekshiruvdan o'tkazilgan holda kiritiladi. Bunda jadval, kitob, mobil telefon, kompyuter, kalkulyator, telekommunikatsiya vositalari hamda boshqa yordamchi materiallarni olib kirish, shuningdek, test jarayonida o'zaro muloqot qilish yoki bir-biriga yordam berish taqiqlanadi. Ushbu talablarni buzgan shaxslar test sinovidan chetlashtiriladi va testdan o'tmagan deb hisoblanadi.

17. Nozmodlar test sinovlarini topshirish uchun belgilangan vaqt va joyga o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjat va ularning arizalari qabul qilinganligi to'g'risidagi xabarnoma bilan kelishi lozim. Belgilangan vaqtdan kech qolgan nomzodlar sinovga kiritilmaydi, sinovda qatnashmagan nomzodlar uchun qo'shimcha sinov o'tkazilmaydi.

18. Nomzodlarning test sinovlari davomida auditoriyadan chiqishi taqiqlanadi. Ularning sog'lig'i yomonlashishi va boshqa zarur holatlarda sinov materiallarini qoldirib, kuzatuv ostida auditoriyadan chiqishga ruxsat beriladi.

19. Test sinovlarini o'tkazish tartibini buzgan nomzodlar auditoriya kuzatuvchilari tomonidan dalolatnoma rasmiylashtirgan holda sinovlardan chetlashtiriladi va ularning sinov ishlari baholanmaydi.

20. Test sinovlari natijalari test natijalari taqdim etilgan vaqtdan e'tiboran 2 ish kuni ichida elektron platformada e'lon qilinadi.

21. Test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlarga test natijalari e'lon qilingan kunning o'zida ularning elektron platformadagi shaxsiy kabinetlariga psixologik o'rganishga o'tganligi to'g'risidagi xabarnoma yuboriladi. Bunda mazkur xabarnomada psixologik o'rganishning sanalari, joylari va nomzodlarning shaxsiy ma'lumotlari aks ettiriladi.

Ushbu xabarnomadan (elektron yoki bosma shaklda) nomzodlar psixologik o'rganishlarga shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar (fuqarolik pasporti, identifikatsiyalovchi ID-karta, fuqaroning xorijga chiqish biometrik pasporti yoki

haydovchilik guvohnomasi) bilan birga kirish uchun ruxsatnoma sifatida foydalanadi.

4-bob. Nomzodlarni psixologik o'rganish

22. Test sinovlarini muvaffaqiyatli topshirgan nomzodlarning psixoemotsional barqarorligini, jumladan boshqaruvda yetuklik, rivojlanishga tayyorlik hamda stressga chidamliligini aniqlash maqsadida psixologik o'rganish topshiriqlar shaklida amalga oshiriladi.

Bunda psixologik o'rganishda har bir to'g'ri javob uchun 0,5 ball beriladigan 200 ta topshiriq uchun 100 ball belgilanadi.

Psixologik o'rganishda eng ko'p (maksimal) to'planishi mumkin bo'lgan ball 100 ballni tashkil etadi. Psixologik o'rganishda 55 va undan past ballni to'plagan nomzodlar keyingi bosqichga (suhbatga) o'tkazilmaydi va psixologik o'rganishdan o'tmagan hamda Dastur doirasida o'qishga qabul qilinmagan hisoblanadi.

23. Psixologik o'rganishni tashkil etish va o'tkazishda quyidagi tartiblar e'tiborga olinadi:

psixologik o'rganish topshiriqlari maxfiylik ta'minlangan holda Qabul komissiyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi huzuridagi Rahbar kadrlarni baholash markazini yoki boshqa psixologik baholash o'tkazuvchi tashkilotlarni shartnoma asosida jalb etgan holda yoxud tegishli soha mutaxassislari ishtirokida shakllantiriladi;

psixologik o'rganish topshiriqlarini bajarish uchun nomzodlarga 150 daqiqa vaqt beriladi;

nomzodlar psixologik o'rganishga shaxsini tasdiqlovchi hujjatning (fuqarolik pasporti, identifikatsiyalovchi ID-karta, fuqaroning xorijga chiqish biometrik pasporti yoki haydovchilik guvohnomasi) asl nusxasi yoki uning O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va (yoki) "Ijtimoiy karta" mobil ilovasi orqali beriladigan elektron shakli va ularning psixologik o'rganishga o'tganligi to'g'risidagi xabarnoma asosida kiritiladi;

psixologik o'rganishlar o'tkaziladigan binoga nomzodlar maxsus tekshiruvdan o'tkazilgan holda kiritiladi. Bunda jadval, kitob, mobil telefon, kompyuter, kalkulyator, telekommunikatsiya vositalari hamda boshqa yordamchi materiallarni olib kirish, shuningdek, psixologik o'rganish jarayonida o'zaro muloqot qilish yoki bir-biriga yordam berish taqiqlanadi. Ushbu talablarni buzgan shaxslar psixologik o'rganishdan chetlashtiriladi va psixologik o'rganishdan o'tmagan deb hisoblanadi.

24. Nomzodlar psixologik o'rganish uchun belgilangan vaqt va joyga o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjat va ularning psixologik o'rganishga o'tganligi to'g'risidagi xabarnoma bilan kelishi lozim. Belgilangan vaqtdan kech qolgan nomzodlar psixologik o'rganishga kiritilmaydi, psixologik o'rganishda qatnashmagan nomzodlar uchun qo'shimcha psixologik o'rganish o'tkazilmaydi.

25. Nomzodlarning psixologik o'rganish davomida auditoriyadan chiqishi taqiqlanadi. Ularning sog'lig'i yomonlashishi va boshqa zarur holatlarda psixologik o'rganish materiallarini qoldirib, kuzatuv ostida auditoriyadan chiqishga ruxsat beriladi.

26. Psixologik o'rganishni o'tkazish tartibini buzgan nomzodlar auditoriya kuzatuvchilari tomonidan dalolatnoma rasmiylashtirgan holda psixologik o'rganishdan chetlashtiriladi va ularning sinov ishlari baholanmaydi.

27. Psixologik o'rganish natijalari psixologik o'rganish topshiriqlari natijalari taqdim etilgan vaqtdan e'tiboran 2 ish kuni ichida elektron platformada e'lon qilinadi.

28. Psixologik o'rganishdan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlarga psixologik o'rganish natijalari e'lon qilingan kunning o'zida ularning elektron platformadagi shaxsiy kabinetlariga suhbat bosqichiga o'tganligi to'g'risidagi xabarnoma yuboriladi. Bunda mazkur xabarnomada suhbatdan o'tishning sanalari, joylari va nomzodlarning shaxsiy ma'lumotlari aks ettiriladi.

Ushbu xabarnomadan (elektron yoki bosma shaklda) nomzodlar suhbatdan o'tishga shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar (fuqarolik pasporti, identifikatsiyalovchi ID-karta, fuqaroning xorijga chiqish biometrik pasporti yoki haydovchilik guvohnomasi) bilan birga kirish uchun ruxsatnoma sifatida foydalanadi.

5-bob. Nomzodlarni suhbatdan o'tkazish

29. Psixologik o'rganishdan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlar bilan suhbat Qabul komissiyasi tomonidan o'tkaziladi.

Bunda nomzodlar suhbatga ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjatining (fuqarolik pasporti, identifikatsiyalovchi ID-karta, fuqaroning xorijga chiqish biometrik pasporti yoki haydovchilik guvohnomasi) asl nusxasi yoki uning O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va (yoki) "Ijtimoiy karta" mobil ilovasi orqali beriladigan elektron shakli va suhbatga o'tganligi to'g'risidagi xabarnoma asosida kiritiladi.

30. Qabul komissiyasi a'zolarining yarmidan ko'pi ishtirok etgan taqdirda nomzodlarni suhbatdan o'tkazish amalga oshiriladi.

Qabul komissiyasi a'zosi suhbatdan o'tayotgan nomzodning yaqin qarindoshi bo'lsa yoki suhbat natijasidan bevosita manfaatdor bo'lsa yoxud uning xolisligiga shubha tug'diruvchi boshqa holatlar mavjud bo'lsa, a'zo o'zini o'zi rad etishi shart. Mazkur tartibga rioya qilmaslik suhbat natijalarini bekor qilishga asos bo'ladi.

Qabul komissiyasi suhbatda nomzodlarni baholash uchun tegishli soha mutaxassislarini jalb qilish huquqiga ega.

31. Suhbat davomida nomzodlarning strategik va tizimli fikrlashi, kommunikativ ko'nikmalari, liderlik salohiyati va o'zgarishlarni boshqarish qobiliyati, qaror qabul qilishda halolligi, kasbiy bilimlari, shuningdek Dastur doirasida o'qishga tayyorlik va motivatsiyasi baholanadi.

32. Suhbat jarayoni shaffof hamda adolatli o'tkaziladi. Suhbat jarayonlari videotasvirga yozib olinadi.

33. Suhbat natijalari 100 ballik tizimda baholanadi. Suhbatdan o'tishda 60 va undan past ballni to'plagan nomzodlar suhbatdan o'tmagan va Dastur doirasida o'qishga qabul qilinmagan hisoblanadi.

Suhbat Qabul komissiyasi tomonidan yakka tartibda, har bir nomzod bilan alohida o'tkaziladi hamda uning davomiyligi ko'pi bilan 30 daqiqani tashkil etadi. Nomzodning bilim va kompetensiyalari quyidagi ko'nikmalar asosida baholanadi:

strategik va tizimli fikrlashi – 20 ball;

kommunikativ ko'nikmalari – 20 ball;

liderlik salohiyati va o'zgarishlarni boshqarish qobiliyati – 15 ball;

qaror qabul qilishda halolligi – 15 ball;

kasbiy bilimlari – 15 ball;

Dastur doirasida o'qishga tayyorlik va motivatsiyasi – 15 ball.

34. Suhbatda har bir nomzodga ushbu Nizomning 33-bandida keltirilgan ko'nikmalar bo'yicha oltita savol (topshiriq) tasodifiy tanlash orqali beriladi.

Asosiy savoldan so'ng berilgan javoblarni aniqlashtirish maqsadida ko'pi bilan uchtagacha qo'shimcha savol berish mumkin.

35. Suhbat natijalari Qabul komissiyasining har bir a'zosi tomonidan boshqa a'zolaridan mustaqil ravishda baholash varaqasida baholanadi. Bunda Qabul komissiyasining har bir a'zosi nomzodni quyidagi mezonlarga asosan baholaydi:

1) strategik va tizimli fikrlash bo'yicha:

muammoni kompleks va tizimli ravishda sifatli tahlil qilishi, qisqa va uzoq muddatli oqibatlarni to'liq baholay olishi, muqobil yechimlarni to'liq taqqoslay

olishi, qarorlarining strategik asoslarini aniq va to'liq tushuntirishi hamda oliy ta'lim tashkiloti rivojlanishiga oid misollar keltira olishi – 20 ball;

muammoni kompleks va tizimli ravishda tahlil qilishi, qisqa va uzoq muddatli oqibatlarni qisman baholay olishi, muqobil yechimlarni qisman taqqoslay olishi, qarorlarining strategik asoslarini aniq va qisman tushuntirishi hamda oliy ta'lim tashkiloti rivojlanishiga oid misollar keltira olishi – 15 ball;

muammoni sifatsiz tahlil qilishi, qisqa va uzoq muddatli oqibatlarni qisman baholay olishi, muqobil yechimlarni qisman taqqoslay olishi, qarorlarining strategik asoslarini qisman tushuntirishi hamda oliy ta'lim tashkiloti rivojlanishiga oid misollar keltira olmasligi – 10 ball;

muammoni kompleks va tizimli ravishda sifatsiz tahlil qilishi, qisqa va uzoq muddatli oqibatlarni baholay olmasligi, muqobil yechimlarni taqqoslay olmasligi, qarorlarining strategik asoslarini qisman tushuntirishi hamda oliy ta'lim tashkiloti rivojlanishiga oid misollar keltira olmasligi – 5 ball;

savollarga umuman javob bera olmasligi – 0 ball;

2) kommunikativ ko'nikmalar bo'yicha:

fikrini ravon, aniq va mantiqiy ravishda sifatli bayon qilishi, savollarga to'liq va ishonch bilan javob berishi, tinglash madaniyati yuqoriligi, murakkab fikrlarni sodda tushuntira olishi, nutq madaniyati va etikaga to'liq rioya qila olishi – 20 ball;

fikrini ravon, aniq va mantiqiy ravishda bayon qilishi, savollarga ishonch bilan javob berishi, tinglash madaniyati yuqoriligi, murakkab fikrlarni sodda tushuntira olishi, nutq madaniyati va etikaga rioya qila olishi – 15 ball;

fikrini sifatsiz bayon qilishi, savollarga qisman javob berishi, tinglash madaniyati o'rtaligi, murakkab fikrlarni sodda tushuntira olishi, nutq madaniyati va etikaga rioya qila olishi – 10 ball;

fikrini sifatsiz bayon qilishi, savollarga qisman javob berishi, tinglash madaniyati o'rtaligi, murakkab fikrlarni sodda tushuntira olmasligi, nutq madaniyati va etikaga to'liq rioya qilmasligi – 5 ball;

savollarga umuman javob bera olmasligi – 0 ball;

3) liderlik salohiyati va o'zgarishlarni boshqarish qobiliyati bo'yicha:

jamoani boshqarish tajribasini aniq misollar bilan sifatli bayon qila olishi, o'zgarishlarni rejalashtira olishi, qarshiliklarni boshqarish usullarini tushuntirishi, natijaga yo'naltirilgan yondashuvni namoyon eta olishi – 15 ball;

jamoani boshqarish tajribasini misollar bilan sifatsiz bayon qilishi, o'zgarishlarni rejalashtira olishi, qarshiliklarni boshqarish usullarini tushuntirishi, natijaga yo'naltirilgan yondashuvni namoyon eta olishi – 10 ball;

jamoani boshqarish tajribasini sifatsiz bayon qilishi, o'zgarishlarni rejalashtira olmasligi, qarshiliklarni boshqarish usullarini tushuntirishi, natijaga yo'naltirilgan yondashuvni namoyon eta olishi – 5 ball;

savollarga umuman javob bera olmasligi – 0 ball;

4) qaror qabul qilishda halolligi bo'yicha:

manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelganda to'g'ri yo'l tutishini sifatli asoslay olishi, shaffoflik va javobgarlik tamoyillarini yaxshi tushunishi, hayotiy vaziyatlarda halol qaror qabul qilish misollarini keltira olishi – 15 ball;

manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelganda to'g'ri yo'l tutishini asoslay olishi, shaffoflik va javobgarlik tamoyillarini tushunishi, hayotiy vaziyatlarda halol qaror qabul qilish misollarini keltira olishi – 10 ball;

manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelganda to'g'ri yo'l tutishini asoslay olmasligi, shaffoflik va javobgarlik tamoyillarini tushunmasligi, hayotiy vaziyatlarda halol qaror qabul qilish misollarini keltira olmasligi – 5 ball;

savollarga umuman javob bera olmasligi – 0 ball;

5) kasbiy bilimlari bo'yicha:

lavozim va mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga egaligi, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va zamonaviy yondashuvlarni sifatli bilishi, bilimlarini amaliy misollar bilan to'liq asoslay olishi – 15 ball;

lavozim va mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga egaligi, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va zamonaviy yondashuvlarni bilishi, bilimlarini amaliy misollar bilan qisman asoslay olishi – 10 ball;

lavozim va mutaxassisligi bo'yicha bilimga egaligi, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va zamonaviy yondashuvlarni bilmasligi, bilimlarini amaliy misollar bilan asoslay olmasligi – 5 ball;

savollarga umuman javob bera olmasligi – 0 ball.

36. Nomzodning suhbat bo'yicha yakuniy bali Qabul komissiyasining a'zolar qo'ygan umumiy ballardan kelib chiqib quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$S = (B_1 + B_2 + \dots + B_5) / n$$

Bunda:

S – nomzodning suhbat bo'yicha yakuniy bali;

$B_1, B_2 \dots, B_5$ – nomzodga Qabul komissiyasi a'zolari tomonidan qo'yilgan ballar;

n – suhbatda ishtirok etgan Qabul komissiyasi a'zolarining soni.

37. Suhbat natijalari suhbatdan o'tkazish yakunlangan vaqtdan e'tiboran 2 ish kuni ichida elektron platformada e'lon qilinadi.

6-bob. Baholash natijalarini shakllantirish va e'lon qilish

38. Yakuniy natija nomzodlarni suhbatdan o'tkazish yakunlanganidan so'ng, 10 ish kunida Qabul komissiyasi tomonidan nomzodlarning test sinovi, psixologik o'rganish va suhbat natijalari bo'yicha to'plagan ballari asosida shakllantiriladi.

39. Nomzodlarning yakuniy bali 100 ballik baholash tizimi asosida quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$YB = (TS \times 0,30) + (PO' \times 0,20) + (S \times 0,50)$$

Bunda:

YB – nomzodning yakuniy bali;

TS – test sinovi natijasida olingan ball;

PO' – psixologik o'rganish natijasida olingan ball;

S – suhbat natijasida olingan ball.

40. Nomzodlar to'plagan yakuniy ballar reyting asosida saralanadi va qabul kvotasi doirasida Qabul komissiyasi tomonidan Dastur doirasida o'qishga tavsiya etiladi.

Bunda nomzodlarning yakuniy ballar reytingi yakuniy natijalar shakllantirilgan kundan e'tiboran 2 ish kuni ichida elektron platformada e'lon qilinadi.

Yakuniy ballar reytingida har bir nomzodning yakuniy bali hamda reytingdagi o'rni ko'rsatiladi.

41. Nomzodlar tomonidan teng yakuniy ball to'plagan taqdirda, ularga quyidagi ketma-ketlikda ustunlik beriladi:

- 1) test sinovi natijasi bo'yicha;
- 2) psixologik o'rganish natijasi bo'yicha;
- 3) rahbarlik lavozimlaridagi ish tajribasi bo'yicha.

42. Dastur doirasida o'qishga tavsiya etilgan nomzod o'qishdan voz kechgan taqdirda, uning o'rniga qabul kvotasiga kirmagan nomzodlar orasidan yakuniy ballar bo'yicha eng yuqori ball to'plagan nomzod o'qishga tavsiya etiladi.

Bunda nomzod Dastur doirasida o'qishga tavsiya etilganligi to'g'risida xabardor qilingan kundan e'tiboran 2 ish kuni ichida o'qishga roziligini tasdiqlashi shart.

Belgilangan muddatda roziligi tasdiqlanmagan yoki nomzod Dastur doirasida o'qishdan voz kechgan taqdirda, u o'qishga tavsiya etilganlar ro'yxatidan chiqariladi hamda uning o'rniga yakuniy ballar bo'yicha eng yuqori ball to'plagan qabul kvotasiga kirmagan nomzod Dastur doirasida o'qishga tavsiya etiladi.

Mazkur tartib qabul kvotasi to'ldirilgunga qadar yoki qabul kvotasiga kirmagan nomzodlar tugaguniga qadar ketma-ket qo'llaniladi.

43. Qabul komissiyasi tavsiyasi bo'yicha Universitet rektorining buyrug'i asosida nomzodlar Dastur doirasida o'qishga qabul qilinadi.

7-bob. Nomzodlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish

44. Test sinovlari, psixologik o'rganish va suhbat natijalari bo'yicha nomzodlarning shikoyatlari, ularning natijalari elektron platformada e'lon qilingan kundan va xabardor qilingan kundan boshlab 5 ish kuni ichida Universitetga yozma yoki elektron shaklda taqdim etiladi.

45. Universitet rektorining buyrug'i bilan kamida 5 kishidan iborat apellyatsiya komissiyasi tuziladi.

Apellyatsiya komissiyasining tarkibi Texnik guruh va Qabul komissiyasi ishida ishtirok etmagan shaxslardan tuziladi.

46. Apellyatsiya komissiyasi shikoyat qilingan kundan boshlab bir ish kuni ichida nomzodni shikoyatini ko'rib chiqish kuni haqida xabardor qiladi. Bunda, nomzod apellyatsiya komissiya tomonidan shikoyatni ko'rib chiqishda ishtirok etishga haqli.

47. Apellyatsiya komissiyasi shikoyatni u berilgan kundan boshlab 2 ish kuni ichida ko'rib chiqadi va qaror qabul qilingan kuni nomzodni shikoyat qanoatlantirilgan yoki rad etilganligini ko'rsatgan holda, yozma yoki elektron ravishda yoxud nomzodning elektron platformadagi shaxsiy kabineti orqali xabardor qiladi.

Bunda Apellyatsiya komissiyasi shikoyatni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

shikoyatni asoslangan deb hisoblash hamda uni qanoatlantirish;

shikoyatni asossiz deb hisoblash hamda uni qanoatlantirishni rad etish.

48. Dastur doirasida o'qishga qabul qilish tartibidan norozi bo'lgan nomzodlar qonunchilikda belgilangan tartibda yuqori turuvchi organga yoki sudga

shikoyat qilishga haqli.

..

8-bob. Yakuniy qoida

..

49. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.